

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Z.D.Abralova

katta o'qituvchi, TDPU, O'zbekistan

Maftuna Tilovoldiyeva

2 - bosqich talabasi, TDPU, O'zbekistan

Annotatsiya: Ushu maqolada o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish metodlari ta'lim jarayonining muhim qismi sifatida ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalar yaratishga va muammolarni ijodiy hal qilishga rag'bantiriladi. Bundan tashqari PISA xalqaro baholash dasturi, 4K modeli bo'yicha o'quvchilarni bilim darajasini baholash dasturi yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: PISA xalqaro baholash dasturi, 4K modeli, kreativlik, ta'lim va fan sohasiga kreativ yondashuv.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация: Методы развития креативности у учащихся являются важной частью образовательного процесса и направлены на повышение их способности к творческому мышлению. Эти методы способствуют независимому мышлению, созданию новых идей и креативному решению проблем. Кроме того, будет представлена информация о работе, проводимой в рамках международной оценки PISA и модели 4К по оценке уровня знаний учащихся.

Ключевые слова: международная оценочная программа PISA, модель 4К, креативность, креативный подход в области образования и науки.

METHODS FOR DEVELOPING CREATIVITY IN STUDENTS

Abstract: The methods for developing creativity in students are an essential part of the educational process, aimed at enhancing their creative thinking abilities. These methods encourage students to think independently, generate new ideas, and creatively solve problems. Additionally, information will be provided about the ongoing work related to the PISA international assessment program and the 4K model for evaluating students' knowledge levels.

Key words: PISA international assessment program, 4C model, creativity, creative approach in education and science.

Kirish qismi: Bugungi kunda kreativ fikrlash ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat yangi g'oyalar ishlab chiqish, balki muammolarni yangi nuqtai nazardan yechishga ham yordam beradi. Bundan tashqari mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotni yaratish, talabalarda

kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlik-shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarini oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida keladi. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir.

PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi, 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiiy fanlardagi bilim va ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Dastur har uch yilda o'tkaziladi va davlatlararo ta'lim sifatini taqqoslashga yordam beradi. PISA natijalari mamlakatlarning ta'lim tizimlarini rivojlantirish uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Baholash jarayonida o'quvchilarning real hayotdagi vaziyatlarga qanday yondashishi ham tekshiriladi. O'zbekiston Respublikasining PISA xalqaro baholash dasturida 2022-yildan boshlab ishtirok etishining huquqiy-me'yoriy asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-son Qarori bilan shakllantirilgan. PISA xalqaro baholash dasturi 2000-yildan buyon xalqaro pedagogik amaliyotga tatbiq etilgan. Respublikada hozirgi kunda tanlab olingan tayanch maktab o'quvchilarining baholash dasturiga ishtirok etishining tashkiliy-metodik bosqichi amalga oshirilmoqda. Xalqaro baholash dasturi milliy ta'lim tizimi uchun yangi dastur ekanligi, milliy ta'lim tizimini xalqaro baholash dasturi bog'liqlikdagi ilmiy-nazariy jihatlari yetarli o'rganilmaganligi, shuningdek, respublikada tanlab olingan tayanch maktablarda baholash dasturining tashkiliy-metodik bosqichida ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib bormoqda.

Respublikamiz xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazish orqali o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan milliy tizimni yaratish vazifalari belgilangan. Jumladan, o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish, mazkur fanlardan o'qitishning shakllari, metodlari va texnologiyalarini yangilash hamda o'qituvchilarning bu borada xabardorligini oshirish, tayyorgarligini kuchaytirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish vazifasi ustuvor etib belgilab berilgan. O'quvchilarda kreativ fikrlashni amalga oshirishda 4K modelidan foydalanish samarali natijasini beradi. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Ijodiy ta'lim - bu ijodkorlikka o'rgatishdan boshqa narsa emas va aynan shu narsa ijodiy faoliyatdir. O'qituvchining shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. O'qituvchi zukko, ijodkor, iqtidorli va bu ijodkorlikni boshqalarga o'rgata oladigan bo'lishi kerak. Ijodiy o'qitish usullari: keys usuli, aqliy hujum usuli, empatiya usuli, inversiya usuli, sinektika usulidan foydalanishi; ijodiy muammoni hal qilishda empatiyadan o'rinli foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki: ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi-sifat va samaradorlik, aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy bog'liq. O'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F.Distervegning fikri ham tasdiqlaydi: "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi". O'qitishning kreativ usullari kommunikativ, kognitiv va ta'lim xarakteridagi muammolarni bir vaqtning o'zida hal qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Maslow, A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.

2. Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений //Science for Education Today. 2018. Т. 8.-№. 3. С. 23-36.

3. Крючков Г. Болонский процесс как гармонизация Европейской системы высшего образования. //Иностранные языки в учебных заведениях. – Педагогическая печать, 2004.

4. Rakhmanberdiyeva, Karima Saydanovna. "Formation of independent education in students." *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali* (2022): 328-330.

5. Rakhmanberdiyeva, Karima Saydanovna. "Students in English classes issues of effective speech development." (2021).

6. Raxmanberdiyeva K. S. TALABALARGA CHET TILI O 'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIM TEXNOLOGIYASI TAHLILLARI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 2. – С. 194-197.

7. Djampulatova, N. (2024). UNIVERSITET TA'LIM MAYONIDA KOUCHINGLIK TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANISH. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 7(3), 86-93.

8. Djampulatova, N. (2023). THE ROLE OF THE COACHING APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2(1), 191-195.

9. Yuldasheva N. K., Djampulatova N. M. TALABALALARNING KOMMUNIKATIV RIVOJLANISHI KONTEKSTIDA KOUCHINGLIK MODELI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 915-920.

10. Yakubov, O. A. (2024). EFFECTIVE METHODS OF MEMORIZING MUSICAL TERMS IN PERSIAN. *Oriental Journal of Philology*, 4(03), 382-386.

11. Yakubov, O. (2022). Application of the method of associations in the educational process. *Журнал образовательный портал «Мультиурок*, 3(7).

12. Yakubov, O. A. "ASSOCIATION METHOD AS A WAY TO IMPLEMENT INNOVATIVE APPROACHES." *CUTTING EDGE-SCIENCE* (2020): 84.

13. Якубов, О. А. (2018). Военная терминология в социокультурном аспекте. *Достижения науки и образования*, (4 (26)), 22-24.

14. Yakubov O. A. EFFECTIVE METHODS OF MEMORIZING MUSICAL TERMS IN PERSIAN //Oriental Journal of Philology. – 2024. – Т. 4. – №. 03. – С. 382-386.

15. Ойбек ЯКУБОВ. Разработка педагогической модели обучения персидскому языку для неспециалистов. Журнал ВЕСТНИК НУУз2024/9, Том 8, Номер 1, Страницы 236-238

16. Ойбек Анварович Якубов. АССОЦИАТИВНЫЙ СПОСОБ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В МУЗЫКАЛЬНЫХ ВУЗАХ. Журнал Научно – образовательный портал «ЗНАНИО» Номер МП-2903803, 2024/2/19. Страницы 103-107

17. Ойбек Анварович Якубов. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИЗУЧЕНИЮ ЯЗЫКА, Материалы конференции - Chirchiq OTQMBY - OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA HORIJY TILLARNI O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK MASALALARI, 2023 Страницы 31-34

18. Ойбек Анварович Якубов, LINGVISTIKADA ASSOTSIATIV METODDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MODELI. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI 2023, Номер 1/8/1 ISSN 2181-7324 Страницы 309-31